**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEVA YULDUZ BAHODIR QIZI

PAREMIOLOGIK MATNLARDA ZOONIMIK KOMPONENTLI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV HAMDA LINGVOPRAGMATIK TAHLILI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

UO‘K: 80/81’362, 82

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Egamberdiyeva Yulduz Bahodir qizi
Paremiologik matnlarda zoonimik komponentli til birliklarining lingvokognitiv hamda lingvopragmatik tahlili (ingliz va o‘zbek tillari misolida) …… 5

Egamberdiyeva Yulduz Bakhodir kizi
Linguocognitive and linguopragmatic analysis of linguistic units with zoonymic components in paremiological texts (based on English and Uzbek languages) 27

Эгамбердиева Юлдуз Баходир кизи
Лингвокогнитивный и лингвопрагматический анализ языковых единиц с зоонимическими компонентами в паремиологических текстах (на материале английского и узбекского языков) …….. 51

Эълон қилинган ишлар рўйхати
List of published works
Список опубликованных работ……..…….. 57

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEVA YULDUZ BAHODIR QIZI

PAREMIOLOGIK MATNLARDA ZOONIMIK KOMPONENTLI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKOGNITIV HAMDA LINGVOPRAGMATIK TAHLILI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Fil6643 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifaning (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Daniyeva Maysara Djamalovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Yo‘ldosheva Xolida Qo‘ziyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Kdirbayeva Gulzira Kurbanbayevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, O‘zbekiston, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99 875) 221-21-04; faks: (+99 875) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz).Qarshi davlat universiteti Tillar fakulteti 3-qavat 310-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99 875) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2026-yil “____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X. Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.K. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Nizomova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda zoonimik komponentli lisoniy birliklarni, xususan, paremiologik matnlardagi shunday til birliklarini lingvokognitiv va lingvopragmatik yondashuv asosida kompleks tahlil qilish ularning mohiyatini chuqurroq ochib berishga imkon yaratmoqda. Ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik birliklarining turli madaniyatlarda o‘xshash va farqli xususiyatlarining qanday ifodalanishi katta qiziqish uyg‘otadi. Shu boisdan zoonimik komponentli lisoniy birliklarni aniqlashda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladigan lingvokognitiv va lingvopragmatik jihatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida leksik birliklarning semantik, kognitiv va pragmatik jihatdan o‘rganilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ingliz, o‘zbek va boshqa tillardagi zoonimik leksika, ya’ni hayvon nomlari bilan bog‘liq lisoniy birliklarni antropotsentrik tamoyil asosida tadqiq etish hamda ularni chog‘ishtirma aspektda tahlil qilish mazkur yo‘nalishdagi ilmiy bilimlarni boyitadi. Paremiologik matnlar, xususan, maqol va matallar ko‘pincha bilvosita ma’no ifodalash, nasihat qilish, baho berish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Zoonimik komponentlar esa ushbu vazifalarni kuchaytirib, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Lingvopragmatik yondashuv til va tafakkur munosabatlarini ijtimoiy omillar hamda kontekstual sharoitlarda tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, til shunchaki strukturalar majmuyi emas, balki u mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘langan tizimdir. Vaziyatga xos jarayonlar hamda madaniy omillar ma’noning shakllanishi va anglanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qarash pragmatika tamoyillariga hamohang bo‘lib, kontekst ma’noni to‘laqonli anglashni ta’minlashini ko‘rsatadi. Mazkur masalalarni tadqiq etish tilning lingvistik merosini asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi va zoonimik komponentli paremiologik birliklarni tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda chet tillarni o‘rganish, ona tilimizni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. “O‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko‘plab vazifalar turibdi”[1]. Ushbu vazifalar qatorida milliy tilimizning sofligini ta’minlash, uning ichki leksik-semantik boyligini ilmiy asosda tadqiq etish va jahon tilshunosligi kontekstida munosib o‘rin egallashini ta’minlash muhim vazifalardan sanaladi. Zoonimik birliklar ishtirok etgan maqol va matallar xalqning ko‘p asrlik turmush tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlari hamda tabiat bilan o‘zaro munosabatini aks ettiruvchi noyob lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Zoonimik paremiyalarni boshqa tillar (xususan, ingliz, rus yoki turkiy tillar) materiallari bilan qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish alohida dolzarblikka ega. Bunday tahlil, bir tomondan, o‘zbek tiliga xos milliy-madaniy o‘ziga xoslikni, ikkinchi tomondan esa turli xalqlar tilshunosligidagi umuminsoniy

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон халқига байрам табриги / Халқ сўзи. 2024 йил 22 октябрь. № 215.

va universal jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, zoonimik komponentli maqol va matallarni chuqur va tizimli tadqiq etish xalqaro muloqot maydonida o‘zbek tilining mavqeyini mustahkamlashga, milliy badiiy adabiyotimiz namunalarini jahon kitobxoniga to‘laqonli va aniq yetkazishga zamin yaratadi. Demak, mazkur masala nafaqat nazariy tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi 34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 20-apreldagi PQ–128-son “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 05-yanvardagi PQ–54-son “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabat kognitiv fanlar, lingvistika va falsafa doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Dastlab Suqrot, keyinchalik Aflotun, shuningdek, Arastu har bir tushuncha muayyan g‘oyaning ifodasi ekanini nazariy jihatdan ta’kidlaganlar[2]. Til va tafakkur masalalari, paremiologik matnlar hamda zoonimik birliklar xususida xorijiy olimlardan J. Ostin, G. Grays, J. Lakoff, M. Jonson, J. Serl, M. Merli-Ponti, S. Sloman, B. Lov, V. An, J. Fokonner, L. Talmi, M. Haliday, K. Froxlichova, R. Lengeker, A.Yang[3]; rus olimlaridan N. Dmitriyev, O. Trubachyov, A. Sherbak, G. Gers,

[2] Сократ / Фрэнсис Бэкон / Рене Декарт / Иммануил Кант / Георг Гегель и другие. Мышление. Что о нем думают философы.– Москва: Изд-во АСТ, 2023. – 190 с.; Платон. Избранные произведения. Том 1. – Москва, 2019. – 461 с.; Аристотель. Риторика. – Москва: ЛитРес, 2000. – 161 с.

[3] Austin J.L. How to do things with words. – Oxford, 1962 (reprinted in Oxford University Press in 2002). – 174 p.; Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. – New York, 1975. Vol. 3, Speech Acts. – P. 41–58; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: Chicago University Press, 1980. – 242 p.; Searle J.R.

S. Ter-Minasova, Y. Apresyan, V. Teliya, L.Plotnikova, Y. Kubryakova, V. Maslova, N. Arutyunova, Y. Bolgova, N. Nikolayeva, A. Afanasyev[4]; qardosh xalqlar olimlaridan G. Brutyan, R. Pavilyonis, Y. Yusifov, Z. To‘rayeva, O. Galimova, G. Shirinyan, A. Jadigerovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan[5].

O‘zbek tilshunoslari G. Bakiyeva, N. Mahmudov, N. Turniyozov, Sh. Safarov, Z. Masharipova, M. Safarov, S. Boymirzayeva, M. Karimov, D. Xudoyberganova, G. Qobuljonova, N. Nasrullayeva, S. Abduqodirov, Sh. Sirojiddinov, N. Normurodova, A. Mamatov, P. Bakirov, D. Yo‘ldasheva, Sh. Davlatova, F. Muzaffarova, M. Daniyevalar katta hissa qo‘shganlar[6].

Foundations of illocutionary logic. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 237 p.; Merleau-Ponty M. In praise of philosophy and other essays. – Hamilton, Ontario, 1988. – 343 p.; Sloman S., Love B., Ahn. W. Feature Centrality and Conceptual Coherence // Cognitive Science, 1988. Vol. 22. No. 2. – P. 189 – 228; Fauconnier G. Mappings in Thought and Language. – New York: Cambridge University Press, 1997. – 205 p.; Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Vol.1: Concept Structuring Systems. – Cambridge: A Bradford Book, The MIT Press, 2000. – 565 p.; Halliday M.A.K. Linguistic studies of text and discourse. – London; New York: Continuum, 2002. – 316 p.; Fröhlichová K. Word Formation and Neologism in the Current English Language. – Bakalářská práce Plzeň, 2011. – 40 p.; Langacker R.W. Ten Lectures on the Basics of Cognitive Grammar. – BRILL: Approx, 2017. – 490 p.; Young A. Folklore and Superstition: the global perspective on Black Cats // Comparative mythology review, 2018. 62(1). – P. 55–71.

[4] Дмитриев Н.К. Собачьи клички у башкир // Доклады Академии наук СССР. Сер. 8. № 15. – Ленинград, 1928. – С. 328–330; Трубачев О.Н. Происхождение названий домашних животных в славянских языках. – Москва, 1960. – 116 с.; Щербак А.М. Названия домашних и диких животных в тюркских языках// Историческое развитие лексики тюркских языков. – Москва, 1961. – С. 83–172; Герц Г. Принципы механики, изложенные в новой связи // Жизнь науки: антология вступлений к классике естествознании. – Москва, 1973. – С. 206–210; Тер-Минасова С.Г. Словосочетание в научно-лингвистическом и дидактическом аспектах. – Москва, 1982. – 144 с.; Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т.1. Лексическая семантика. – Москва, 1995. – 482 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты. – Москва,1996. – 288 с.; Плотникова Л.И. Новое слово: порождение, функционирование, виртуализация. – Белгород, 2000. – 201 с.; Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва, 2004. – 560 с.; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва, 2006. – 297 с.; Арутюнова Н.Д. Актуальные проблемы современной лингвистики. – Москва, 2007. – 110 с.; Болгова Е.В. Зоонимы русского языка в современном речевом употреблении: семантико-прагматический подход: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Мурманск, 2021. – 21 с.; Николаева Н.В. Функционирование зоонимов в сравнениях и метафорах разносистемных языков (на материале русского, чувашского, английского и немецкого языков): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Чебоксары, 2022. – 25 с.; Афанасьев А.Н. Русские заветные сказки с пословицами и поговорками. – Минск, 2023. – 231 с.

[5] Брутян Г.А. Гипотеза Сепира-Уорфа. – Ереван, 1968. – 66 с.; Павилёнис Р.И. Проблема смысла. Современный логико-философский анализ языка. – Москва, 1983. – 286 с.; Юсифов Ю.Г. Зоологическая лексика азербайджанского языка: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Баку, 1985. – 20 с.; Тураева З.Я. Лингвистика текста. – Москва, 1986. – 126 с.; Галимова О.В. Этнокультурная специфика зоонимической лексики, характеризующей человека (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. …. канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 24 с.; Shirinyan G. Language as reflection of cultural identity in Central Asia: A study of zoonyms in Armenian and Uzbek contexts // Journal of Armenian studies, 2021. 9(3). – P. 102–117; Jadigerova A.M. The role of zoonyms in linguoculturology // Science Time, 2024. Vol. 3. Is. 4. – P. 162–165.

[6] Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 46 с.; Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.; Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – 60 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.; Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2008. – 150 b.; Safarov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent, 2010. – 367 b.; Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2011. – 152 б.; Karimov M. Paremiologiya asoslari. – Samarqand, 2012. – 210 b.; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 135 б.; Қобулжонова Г. Метафора ва унинг табиатига қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. № 2. – Б. 40–46; Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларнинг шаклланиши: Филол. фан. док. (DSc) … дисс: Автореф. – Тошкент, 2018. – 71 с.; Abduqodirov S. Zoonymy and their role in the cultural heritage of Central Asia // Journal of Central Asian Studies. 2018. Vol. 7(2). – P. 50–67; Sirojiddinov Sh., Normurodova N. Pragmatics and Cognition: Intention and Conceptualization in discourse // International journal of engineering and advanced technology. 2019. Vol. 9 (1). – P. 2888–2893; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 170 b.; Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2020. № 10. – Б. 202–210; Yo‘ldasheva D. Ethnolinguistic analysis of animal

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Turli tizimdagi tillarning tipologik va chog‘ishtirma xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari paremiologik matnlar tarkibida ishtirok etgan zoonimik birliklarning lingvokognitiv va lingvopragmatik tahlil qilish, maqol va matallarda zoonimik komponentli til birliklari voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish va kommunikativ diskursda namoyon bo‘ladigan pragmatik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zoonimik komponentli paremiologik matnlarning lisoniy xususiyatlarini yoritish hamda zoonimik leksikaning antropotsentrik tamoyil asosida shakllanishini dalillash;

ingliz va o‘zbek paremiologiyasi tarkibidagi zoonimik birliklarda konseptual derivatsiya jarayonlari hamda ularning frazeologizmlar tarkibida voqelanishini asoslash;

ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli til birliklarining matn shakllantirishdagi funksional imkoniyatlarini isbotlash;

chog‘ishtirilayotgan tillar paremiologik matnlarida zoonimik komponentli til birliklari voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish, kommunikativ diskursda namoyon bo‘lishining pragmatik jihatlarini ochib berish.

ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik matnlarning lingvokognitiv hamda lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularda aks etgan milliy-madaniy qadriyatlar, kommunikativ maqsadlar va ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallar, frazeologik birliklar va badiiy asarlar tarkibida mavjud bo‘lgan zoonimik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek paremiologik matnlari tarkibidagi zoonimik komponentli til birliklarining lingvokognitiv va lingvopragmatik, milliy-madaniy xususiyatlari hamda matn shakllantirish imkoniyatlarining pragmatik talqini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvokognitiv va lingvopragmatik, lingvistik tasvirlash, modellashtirish, kontekstual, leksik-semantik, statistik hamda chog‘ishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

it, tulki, sher, ot, bo‘ri, ayiq kabi zoonimik birliklarning inson ongida *sadoqat, ayyorlik, jasorat, mehnatkashlik, omad, yalqovlik* singari konseptlar bilan assotsiativ bog‘lanishi, ularning lingvopragmatik xususiyatlari, nutqiy qo‘llanish jarayonida

---

names in the context of Uzbek traditions // Central Asian Ethnographic Review. 2023. Vol. 1(1). – P. 23–35; Davlatova Sh.T. Folklorda bolalar qo‘shiqlarining o‘ziga xos jihatlari // Journal of new century innovations. 2025. Vol. 68. Issue. 2. – P. 52–58; Muzaffarova F. Ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari // The Lingua Spectrum. 2025. Vol. 3. – P. 55-60; Daniyeva M.Dj. Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarga turlicha qarashlar // Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya. 2025. Jild: 4 nashr: 9. – B. 93–96.

kommunikativ maqsadni ro‘yobga chiqarish hamda adresatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tadqiq etilgan hamda zoonimik komponentli paremiologik birliklarni antropotsentrik tamoyil asosida tahlil qilish orqali ularning mazmuniy markazida inson omili turishi va bunday birliklar til, tafakkur hamda madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishi ilmiy jihatdan asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli til birliklarining matn shakllantirishdagi *nominativ (nomlash), stilistik, kommunikativ, pragmatik, emotsional-ekspressiv, tasviriylik (obrazlilik), ramziylik (simvolik), atmosfera yaratuvchilik* kabi funksional imkoniyatlari ularning ko‘p qirrali lingvostilistik va lingvopragmatik xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishi, sarlavha va topik vazifasini bajarib, matn mavzusini belgilash va qo‘shimcha axborot yuklash, obrazlilikni ta’minlash, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish, ramziy (simvolik) ma’no yuklash, umumiy kommunikativ muhitni shakllantirish, muallif niyatini ifodalash, matnning badiiy-estetik va kommunikativ samaradorligini ta’minlash singari funksiyalarni bajarishi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek paremiologik tizimlaridagi zoonimik birliklar misolida konseptlar xususiyatlarining birinchisidan ikkinchisiga ko‘chishini ta’minlovchi inson xulq-atvorini tavsiflashga xizmat qiluvchi barqaror semantik modellar kabi *umumlashtirish*, obyektlarning umumiy va xususiy turlarini ifodalovchi lingvistik birliklarning yuzaga kelishida namoyon bo‘ladigan *konkretlashtirish*, leksik-tematik guruh tarkibining miqdoriy jihatdan ortishi ko‘rinishidagi *kengaytirish*, mazkur guruhlar hajmining qisqarishi singari *toraytirish*, turg‘un birikmalar shakllanishiga asos bo‘luvchi muayyan vaziyatning ifodalanishi kabi *detallashtirish,* metaforik va frazeologik birikmalarning shakllanishi orqali voqelanishi asoslangan hamda *chuqurlashtirish* bosqichlaridan iborat konseptual derivatsiya jarayonlari yoritilgan;

ingliz va o‘zbek tillari paremiologik matnlarida zoonimik birliklarning voqelanishi xalqning tarixiy tajribasi, yashash muhiti va an’anaviy-madaniy qarashlari bilan uzviy aloqadorligi, ularning mazmuniy-pragmatik xususiyatlari jamoaviylik, hamjihatlik va o‘zaro yordam kabi milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, zoonimik birliklarning kommunikativ diskursdagi milliy-madaniy xususiyatlari, motivatsion asoslari, peyorativ yoki meliorativ konnotatsiyasi, turli kommunikativ vaziyatlarda yuzaga keluvchi invektivlik darajasi, interaktiv va emotiv effekt hosil qilish imkoniyatlari orqali belgilanib, ingliz va o‘zbek paremiologik tizimlarida mazkur birliklarning madaniy-stilistik jihatdan o‘ziga xos tarzda farqlanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik matnlarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari chog‘ishtirma jihatdan tadqiq etilgan, ushbu lisoniy birliklarning til tizimidagi o‘rni va funksional imkoniyatlari, matn shakllantiruvchi pragmatik omillari yoritilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik matnlarning tadqiqi natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida kognitiv tilshunoslik,

lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, stilistika, leksikologiya, semantika, tarjima nazariyasi sohalariga oid o‘quv adabiyotlarini yaratish belgilangan;

zoonimik komponentli paremiologik matnlarning kognitiv modeli belgilangan va ushbu model asosida zoonimik birliklarning lingvokognitiv va lingvopragmatik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish yuzasidan bir qator taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar lingvistik tasvirlash, modellashtirish, kontekstual, leksik-semantik, statistik hamda chog‘ishtirma tahlil metodlari orqali chiqarilgani, xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibida zoonimik birliklar ishtirok etgan paremiologik matnlarni lingvokognitiv va lingvopragmatik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish g‘oyalarini ingliz, o‘zbek va boshqa tillar tizimiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, stilistika, leksikologiya, semantika, tarjima nazariyasi va sotsiolingvistikaga oid qator muammolar yechimini izlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot atijalarining amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, stilistika, leksikologiya, semantika, tarjima nazariyasi, lingvopragmatika fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko‘rinishdagi o‘quv qo‘llanmalari yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda muhim ilmiy manba bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari paremiologik matnlar tarkibidagi zoonimik birliklarning lingvokognitiv va lingvopragmatik tahlilini amalga oshirish, maqol va matallarda zoonimik komponentli til birliklari voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish va kommunikativ diskursda namoyon bo‘ladigan pragmatik imkoniyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

it, tulki, sher, ot, bo‘ri, ayiq kabi zoonimik birliklarning inson ongida *sadoqat, ayyorlik, jasorat, mehnatkashlik, omad, yalqovlik* singari konseptlar bilan assotsiativ bog‘lanishi, ularning lingvopragmatik xususiyatlari, nutqiy qo‘llanish jarayonida kommunikativ maqsadni ro‘yobga chiqarish hamda adresatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tadqiq etilgan hamda zoonimik komponentli paremiologik birliklarni antropotsentrik tamoyil asosida tahlil qilish orqali ularning mazmuniy markazida inson omili turishi va bunday birliklar til, tafakkur hamda madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishi ilmiy jihatdan asoslangan; ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli til birliklarining matn shakllantirishdagi *nominativ (nomlash), stilistik, kommunikativ, pragmatik, emotsional-ekspressiv, tasviriylik (obrazlilik), ramziylik (simvolik), atmosfera yaratuvchilik* kabi funksional imkoniyatlari ularning ko‘p qirrali lingvostilistik va lingvopragmatik

xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishi, sarlavha va topik vazifasini bajarib, matn mavzusini belgilash va qo‘shimcha axborot yuklash, obrazlilikni ta’minlash, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish, ramziy (simvolik) ma’no yuklash, umumiy kommunikativ muhitni shakllantirish, muallif niyatini ifodalash, matnning badiiy-estetik va kommunikativ samaradorligini ta’minlash singari funksiyalarni bajarishi isbotlanganligiga oid ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalardan 2025–2026-yillarda PF–201912258 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida filologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘qitiladigan “Tilshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvopragmatika”, “Lingvokulturologiya”, “Qiyosiy tilshunoslik” va “Paremiologiya” fanlarini o‘qitish jarayonida, shuningdek, mazkur fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar, fan dasturlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 30-iyundagi № 3086-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur xulosalar loyiha doirasida tashkil etilgan ingliz tili kurslarida samarali qo‘llanildi;

ingliz va o‘zbek paremiologiyasi tarkibidagi zoonimik birliklarda konseptlar xususiyatlarining birinchisidan ikkinchisiga ko‘chishini ta’minlovchi umumlashtirish, konkretlashtirish, kengaytirish, toraytirish, detallashtirish va chuqurlashtirish bosqichlaridan iborat konseptual derivatsiya jarayonlarining yoritilganligiga oid chiqarilgan ilmiy xulosalar Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan XT-F2-011 “Qoraqalpoq tilini o‘qitishni takomillashtirishning nazariy uslubiy asoslarini kompleks tadqiq qilish va konsepsiyasini ishlab chiqish” fundamental loyihasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2026-yil 8-maydagi №193-son ma’lumotnomasi). Natijada tahlil natijalari jadvallar va rasmlarda aks ettirildi va amaliyotga tatbiq etildi;

ingliz va o‘zbek tillari paremiologik matnlarida zoonimik birliklarning voqelanishi xalqning tarixiy tajribasi, yashash muhiti va an’anaviy-madaniy qarashlari bilan uzviy aloqadorligi, ularning mazmuniy-pragmatik xususiyatlari jamoaviylik, hamjihatlik va o‘zaro yordam kabi milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, zoonimik birliklarning kommunikativ diskursdagi milliy-madaniy xususiyatlari, motivatsion asoslari, peyorativ yoki meliorativ konnotatsiyasi, turli kommunikativ vaziyatlarda yuzaga keluvchi invektivlik darajasi, interaktiv va emotiv effekt hosil qilish imkoniyatlari orqali belgilanib, ingliz va o‘zbek paremiologik tizimlarida mazkur birliklarning madaniy-stilistik jihatdan o‘ziga xos tarzda farqlanishi dalillanganligi yuzasidan olingan ilmiy xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining “FM–105.2 Samarqand” radiokanalida 2026-yil 30-aprel kuni efirga uzatilgan “Radiointervyu” radio dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2026-yil 1-maydagi 01-07/153-son ma’lumotnomasi). Natijada radio dasturi orqali tinglovchilarning mavzu yuzasidan ilmiy-nazariy bilimlarini kengaytirish, milliy-madaniy qadriyatlarning paremiologik birliklarda aks etishi haqidagi tushunchalarini boyitish hamda dasturning ilmiy-ommabop mazmunini yanada oshirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy nashr, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta maqola, shulardan, 9 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi, uning dolzarbligi asoslangan, respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Birinchi bob “**Tilshunoslikda zoonimik komponentli paremiologik matnlarni o‘rganishning nazariy asoslari**” deb nomlanadi. Birinchi bobning birinchi faslida *“Tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlari: lingvokognitiv va lingvopragmatik yondashuvlarning nazariy asoslari”* yoritilgan. Inson tafakkuri, uning rivojlanishi va til bilan o‘zaro bog‘liqligi qadim zamonlardan beri faylasuflar hamda olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabat kognitiv fanlar, lingvistika va falsafa doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Miloddan avvalgi V asr o‘rtalaridayoq yunon faylasuflari faqat tabiatni emas, balki inson tafakkurini ham o‘rganishga kirishganlar. Ular atrof-muhitni anglashni insonning fikrlash xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rganlar. Dastlab Suqrot, keyinchalik Aflotun inson tafakkurining asosiy birligi sifatida “tushuncha”ni ajratib ko‘rsatganlar[7], Arastu esa bu qarashlarni yanada rivojlantirgan[8]. Til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatning nazariy poydevori *lingvokognitiv* va *lingvopragmatik* deb nomlanuvchi ikki asosiy yondashuvga asoslanadi. Har ikkisi til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini turlicha ilmiy asoslarda yoritadi. Zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlari ko‘proq lingvokognitiv yondashuv doirasida o‘rganilmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til birliklari inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual tuzilmalar bilan uzviy bog‘liqdir. Har bir lisoniy birlik ortida muayyan bilim, tajriba va madaniy tasavvurlar mujassam bo‘ladi. Ayniqsa,

[7] Сократ / Фрэнсис Бэкон / Рене Декарт / Иммануил Кант / Георг Гегель и другие. Мышление. Что о нем думают философы. – Москва, 2023. – 190 с.; Платон. Избранные произведения. Том 1. – Москва, 2019. – 461 с.

[8] Аристотель. Риторика. – Москва: ЛитРес, 2000. – С. 16.

zoonimik komponentlar muayyan hayvonlarga xos belgilar orqali ayyorlik, jasorat yoki sustkashlik kabi insoniy sifatlarni ifodalab, konseptual metaforalar hosil qiladi. Lingvokognitiv yondashuv mental tuzilmalarni (konseptlarni) va tilning bilishga ta'sirini o'rganadi, lingvopragmatik yondashuv esa kommunikativ maqsadlarga erishish uchun tilning qo'llanilishi hamda uning tinglovchiga ta'sirini tadqiq etadi.

Paremiologik matnlar ko'pincha bilvosita ma'no ifodalash, nasihat qilish va baho berish vazifalarini bajaradi. Zoonimik komponentlar esa ushbu pragmatik ta'sirni kuchaytiradi. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan, maqollar nutqiy akt sifatida qaralib, unda so'zlovchining niyati, kontekst va tinglovchining talqini muhim rol o'ynaydi. Masalan, hayvon obrazlari orqali berilgan tanqid yoki kinoya ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita tarzda ifodalanadi. Bu esa kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Lingvokognitiv yondashuvda konsept, freym, mental reprezentatsiya, olamning lisonnniy manzarasi kabi tushunchalar asosiy hisoblansa, lingvopragmatik yondashuvning asosiy tushunchalariga: nutqiy akt, intensiya (maqsad), kontekst, presuppozitsiya kabilar kiradi. Demak, har ikki yondashuv tilni statik tizim sifatida emas, balki tafakkur bilan o'zaro aloqada bo'ladigan dinamik mexanizm sifatida izohlaydi.

Bobning ikkinchi fasli *"Paremiologiyaning o'rganilishi va zoonimik komponentli paremiologik matnlarning lisoniy xususiyatlari"* ni yoritishga bag'ishlangan. Paremiologiya tilshunoslikning alohida yo'nalishlaridan biri bo'lib, u maqol, matal, hikmatli so'zlar kabi xalq og'zaki ijodiga mansub barqaror birliklarni o'rganadi. Zoonimik komponentli paremiologik birliklar inson tafakkurida olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular orqali abstrakt tushunchalar konkret obrazlar vositasida ifodalanadi. Paremiologik matnlarning lisoniy xususiyatlari ularning shakllanish jarayonida mavjud bo'lgan ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy aloqada bo'lib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Har bir xalqning paremiologik fondi uning tarixiy taraqqiyoti, yashash tarzi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqligi nuqtayi nazaridan, ingliz va o'zbek paremiologik birliklarini qiyosiy o'rganish turli madaniyatlarda o'xshash va farqli konseptlarning qanday ifodalanishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, jamoaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi "*Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq yer*"[9] o'zbek xalq maqoli mazmun jihatidan g'arb xalqlarining ko'proq individualizm va shaxsiy tashabbusni ta'kidlovchi "*The squeaky pig gets fed*"[10] (tarjimasi: "Qichqirgan cho'chqa to'yadi", ma'nosi: kim o'z talabini ochiq bildirsa, faol bo'lsa o'sha natijaga erishadi, ya'ni: tashabbuskor va talabchan odam yutadi) kabi maqollaridan farq qiladi.

Paremiologik birliklar, xususan matallar xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Muvofiqlik nazariyasiga ko'ra, har qanday nutqiy birlik tinglovchi uchun maksimal axborot berishi va minimal kognitiv kuch talab qilishi bilan ahamiyatlidir. Matallar aynan shu jihati bilan ajralib turadi: ular qisqa shaklda katta semantik yukni ifodalaydi. Zoonimik komponent esa bu jarayonda muhim rol o'ynab, tinglovchining ongida

[9] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005. – B. 14.
[10] Handbook of proverbs. Bohn's reference library. – London: George Bell & sons, 1899 (reprint. 2012). – P. 367.

tezkor assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. “*Otni suvga olib borish mumkin, ichirish mumkin emas*” matali o‘zbek va ingliz tillarida deyarli to‘liq ekvivalentga ega: “*You can lead a horse to water, but you can’t make it drink*”. Zoonimik komponent “*ot/horse*” har ikkala madaniyatda ham inson irodasi va mustaqil qaror qabul qilish bilan bog‘liq. Paremiologik matnlarning yana bir turi – bu og‘zaki ijod namunalaridan biri hisoblangan bolalar folklori bo‘lib, o‘zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o‘yin qo‘shiqlari (sanama) va boshqalarni o‘z ichiga oladi. A. Obidjonning “Suhbat” nomli she’ri bolalar yaxshi ko‘radigan sanama o‘yiniga misol bo‘ladi:

G‘ozlar bir so‘z deysizmi? – G‘a-g‘a, g‘a!
Totli suli yeysizmi? – Ha-ha-ha!

Bolalarning sanama qo‘shiqlari ingliz xalqiga ham xos bo‘lib, bunga detektiv yozuvchi Agata Kristining “Ten Little Niggers” (O‘nta negr bolasi) nomli romanidagi mashhur sanoq she’rini keltirish mumkin[11]. Bu she’r matnida “ari”, “ayiq” kabi zoonimik komponentlar ishtirok etgan. Yoki “*One, one, one, little dog run…”* sanamasini olsak, bu sanama matnida ham “it”, “mushuk”, “qush” kabi zoonimik birliklarni uchratish mumkin. Paremiologik birliklarning funksional-kognitiv xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ular shunchaki lingvistik hodisa emas, balki madaniyatning kognitiv xaritasining muhim elementlaridir. Bu esa turli madaniy kontekstlarda paremiologik nutq murakkabligini to‘liq baholash uchun lingvistika, antropologiya va psixologiyani birlashtirgan fanlararo yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Paremiologik birliklarning sintaktik va fonologik xususiyatlari ham ularning yodda qolarli bo‘lishi va avloddan avlodga og‘zaki uzatilishini ta’minlaydi. Inglizcha *“A nod is as good as a wink to a blind horse”*[12] (tarjimasi: Ko‘r otga bosh irg‘ash ham, ko‘z qisish ham bir xil; ma’nosi: tushunmaydigan odamga ishora ham foydasiz) maqollari qisqa, qofiyadosh va ritmik tuzilishi tufayli oson yodlanadi. Xuddi, shuningdek, o‘zbekcha *“Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi”*[13] maqoli ritmik va parallel tuzilishi bilan esda qoluvchi xususiyat kasb etadi.

Bobning uchinchi fasli “Zoonim tushunchasi va zoonimik leksikaning antropotsentrik tamoyil asosida o‘rganilishi” deb nomlangan. Ingliz tilidagi *animal* so‘zi (“hayvon”, “jonli mavjudot”) lotincha *anima* – “jon, ruh, nafas” so‘zidan hosil bo‘lgan[14]. O‘zbek tilidagi *hayvon* so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “*hay*” (tirik) so‘zidan kelib chiqqan[15]. Etimologik jihatdan “hayvān” jonli, tirik mavjudot, jonivor ma’nolarini anglatadi, harakatlanuvchi, jonli organizmlarni ifodalash uchun ishlatiladi, ya’ni uning ma’nosi jonlilik va hayot tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu holat turli tillarda “hayvon”ni ifodalovchi umumiy atamalar ko‘pincha jon, hayot yoki ruh bilan bog‘liq tushunchalardan shakllanganligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, insonlar hayotni va jonli mavjudotlarni nomlashda ularning tirikligi va faoliyatini markaziy o‘ringa qo‘ygan. Zoonimik leksikani o‘rganish bir qator nazariy

[11] Christie Agatha. Ten Little Niggers. – Moscow: OOO “Anthology”, 2023. – 170 p.
[12] Handbook of proverbs. Bohn’s reference library. – London: George Bell and sons, 1899 (reprint. 2012). – P. 112.
[13] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005. – B. 185.
[14] Cambridge Essential English Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – P. 15.
[15] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 482.

va metodologik muammolar bilan bog‘liq. Avvalo, zoonimlarning semantik ko‘lami juda keng bo‘lib, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri (denotativ) ma’nodan tashqari ko‘chma (konnotativ) ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Masalan, “*bo‘ri”, “tulki”, “eshak”, “it*” kabi zoonimlar turli madaniyatlarda nafaqat hayvon nomini, balki ayyorlik, soddalik, sadoqat yoki qo‘pollik kabi muayyan insoniy sifatlarni ham ifodalaydi. Shu sababli zoonimik birliklarning ma’nosini aniqlashda faqat lingvistik tahlil yetarli bo‘lmay, balki madaniy va kognitiv omillarni ham hisobga olish zarur. Antropologik tamoyil – bu falsafiy tushuncha bo‘lib, uning vakillari *inson* tushunchasida asosiy dunyoqarash kategoriyasini ko‘radi va inson, tabiat, jamiyat hamda tafakkur haqidagi tizimli tasavvurlar faqat shu nuqtayi nazardan shakllantirilishi mumkinligini ta’kidlaydi[16]. Antropotsentrik yondashuv inson va hayvonlar olami o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan bo‘lib, bu munosabatlar haqidagi bilimlar tilning nafaqat umumiy, balki milliy va metaforik dunyoqarashida ham aks etadi.

Zoonimik leksika tilning eng faol va obrazli qatlamlaridan biri bo‘lib, uning tadqiqi til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. U nafaqat nominativ birlik, balki kognitiv va pragmatik ma’no tashuvchi vosita sifatida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega, zero, ularning paremiologik matnlar tarkibidagi qo‘llanishini o‘rganish inson tafakkurining obrazli va konseptual xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida paremiologik matnlar tarkibidagi zoonimik komponentli til birliklarining lingvokognitiv tahlili”**ga bag‘ishlangan. Ushbu bobning birinchi faslida *“Ingliz va o‘zbek paremiologik matnlarida zoonimik komponentli til birliklarining konseptuallashuvi va kognitiv modellari”* berilgan. Zamonaviy lingvokognitiv tadqiqotlarda konseptuallashuv jarayoni insonning borliqni idrok etishi va til vositasida ifodalashi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Paremiologik birliklar hisoblangan maqol va matallar, til sohiblarining borliqni idrok etish va konseptuallashtirish jarayonini o‘zida aks ettiradi. Zoonimik komponentli birliklar esa inson tafakkurida hayvonlar obrazi orqali ijtimoiy, axloqiy va psixologik tushunchalarni ifodalashning samarali vositasi hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday birliklar ko‘pincha umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ularning konseptual tizimi va modellari muayyan madaniy xususiyatlar bilan farqlanadi. Kognitiv tilshunoslik ikkilamchi lisoniy belgilar tahliliga alohida e’tibor qaratadi, chunki nominitiv birliklarning konseptuallashuv xususiyatlarini o‘rganish vositasida lisoniy faoliyatning antropotsentrik mohiyati oydinlashadi.

Konseptuallashtirish jarayoni kechishini ta’minlovchi va uni samaraga olib keluvchi mexanizmlar turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. So‘z yasash tizimining kognitiv asoslari bilan maxsus shug‘ullangan tadqiqotchilar bunday mexanizmlar qatoriga “perspektivlashtirish yoki istiqbollashtirish”, “biriktirish”, “qurib bitkazish”, “rivojlantirish” amallarini kiritadilar[17]. Ushbu amallar, so‘zsiz, zoonimik birliklar

[16] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 32.

[17] Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1993. – С. 26; Плотникова Л.И. Новое слово: порождение, функционирование, виртуализация. – Белгород: Изд. БТУ, 2000. – С. 47.

yasalishining ham konseptual mundarijasiga kiradi. R. Langakerning kognitiv grammatika nazariyasiga ko‘ra, murakkab semantik tuzilmalar komponentlar o‘rtasidagi konseptual moslashuv (conceptual integration) natijasida shakllanadi. “*It hurar, karvon o‘tar*”[18] matalida “*it*” va “*karvon*” komponentlari alohida-alohida semantik maydonga ega bo‘lsa-da, ular nutqiy faoliyat jarayonida yagona konseptual struktura – “*to‘sqinliklarga qaramay harakatni davom ettirish*” modeliga birlashadi. Ingliz tilidagi zoonimik komponentli paremiologik birliklarning konseptuallashuvi ham kognitiv tilshunoslik tamoyillari asosida izohlanadi. Buni “*You can lead a horse to water, but you can’t make it drink*”[19] maqoli misolida ko‘rish mumkin, maqolning semantik mazmuni uning tarkibidagi “*horse”, “water”, “lead”, “drink*” komponentlari orqali to‘liq ochib berilmaydi, balki qo‘shimcha konseptual bilimlarga murojaat qilishni talab etadi. Mazkur maqolning konseptual shakllanishida “*horse*” (ot) konsepti bilan bog‘liq bilimlardan tashqari, inson faoliyatiga oid umumiy tajriba, ya’ni majburlash va ixtiyor o‘rtasidagi munosabat haqidagi bilim asosiy rol o‘ynaydi. Bu yerda “harakatni tashkil etish” va “natijani nazorat qilish” o‘rtasidagi farq konseptual asos sifatida yuzaga chiqadi. J.Lakoffning konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, bu maqolda “inson – hayvon” metaforik modeli orqali inson xulq-atvori tushuntiriladi. “*Horse*” manba domen sifatida insonni ifodalaydi, “*water*” esa zaruriyat yoki imkoniyatni bildiradi. Natijada “imkoniyat yaratish – natijani kafolatlamaydi” degan konseptual xulosa hosil bo‘ladi.

Hayvonlarga xos ayrim belgilar umumlashtirilib, inson xulq-atvoriga nisbatan qo‘llanadi va natijada barqaror semantik modellarga aylanadi. Kognitiv model – bu inson ongida ma’lumotni qanday tashkil qilish, tushunish va qayta ishlashni ifodalovchi aqliy (mental) sxema yoki qolipdir, ya’ni bu “biz narsalarni qanday tasavvur qilamiz va tushunamiz” degan ichki tizim. Kognitiv tilshunoslikda kognitiv model: borliq haqidagi bilimlarning ongdagi strukturasi; tushunchalar o‘rtasidagi aloqa tizimi va tajriba asosida shakllangan konseptual sxema sifatida qaraladi. Yuqorida tahlil qilgan maqollardan birini, ya’ni “*You can lead a horse to water, but you can’t make it drink*”[20] maqolini oladigan bo‘lsak, ushbu maqol ortida quyidagi kognitiv model yotadi:

Subyekt → boshqani harakatga yo‘naltiradi;

Vaziyat → imkoniyat yaratiladi (suvga olib borish);

Natija → ixtiyoriy harakatga bog‘liq (ichish yoki ichmaslik).

Natijada → “*majbur qilish ≠ natijani kafolatlash*” umumiy konsepti konseptuallashadi. Demak, kognitiv model – bu inson ongida shakllangan, borliqni tushunish va izohlashga xizmat qiluvchi konseptual bilimlar tizimi bo‘lib, til birliklarining semantik va pragmatik mazmunini shakllantiradi. Zoonimik birliklarning kognitiv modellari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Metaforik model (inson xulqini hayvon orqali ifodalash);
2. Metonimik model (hayvonning bir belgisi orqali umumiy xarakter berish);
3. Freym modeli (tayyor bilim strukturasi);

[18] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005. – B. 85.
[19] Handbook of proverbs. Bohn’s reference library. – London: George Bell and sons, 1899 (reprint. 2012). – P. 217.
[20] Ko‘rsatilgan manba.

4. Ssenariy (script) modeli (voqealar ketma-ketligi orqali ma’no hosil qilish);

5. Baholovchi (evaluativ) model (ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish).

Ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik birliklar inson tafakkurining universal va milliy jihatlarini birgalikda aks ettiradi.

Bobning ikkinchi faslida *“Ingliz va o‘zbek paremiologiyasi tarkibidagi zoonimik birliklarda konseptual derivatsiya hodisasi”* deb atalgan. Derivatsion jarayonlarning asosiy sabablari, avvalo, tilning antropotsentrikligi bilan bog‘liq, qolaversa, uning evolyutsiyasi hamda tejamkorlikka intilishidadir. Voqelikdagi o‘zgarishlar ham tashqi axborotni konseptual va kategorial qayta ishlanishi tufayli tilda o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga zamin yaratadigan omillar hisoblanadi. Buning oqibatida obyektning yangi (yoki yangilangan) ikkilamchi nomlanishi sodir bo‘ladi. Konseptning imkoniyatidan amaliy foydalanish jarayoni *konseptual derivatsiya* deb yuritiladi. Konseptlar xususiyatlarining birinchisidan ikkinchisiga ko‘chishini, quyidagi zoonimik komponentli birliklar derivatsiyasida ko‘ramiz: *king of beasts* (the lion) – maxluqlar shohi (sher); *king of birds* (the eagle) – qushlar shohi (burgut). Shu kabi zoonimik komponentli birliklar orqali, derivatsiya jarayonida, shaxsning jamiyatda tutgan maqomiga ko‘ra ilgari o‘ringa chiqarib qo‘yilishi, jonzotlarga xos bo‘lgan xususiyatlar boshqa konseptual doiraga ko‘chirilgan. Ushbu zoonimik komponentli birliklarning tagma’nosida *sherning* va *burgutning* yetakchilik, yo‘lboshchilik vazifasi dominantlik qilmoqda. Konseptlar xususiyatlarining birinchisidan ikkinchisiga ko‘chishini o‘zbek tilidagi zoonimik komponentli birliklar derivatsiyasida ham uchratamiz: *otning qashqasi, ilonning yog‘ini yalagan, ayiq polvon, asalaridek mehnatkash, tulkidek ayyor, eshak kabi befarosat* va hokazolar. Ingliz va o‘zbek tillariga mansub bo‘lgan zoonimik komponentli birliklar derivatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishda bir qator o‘xshashliklar kuzatildi. Quyidagi jadval konseptual derivatsiya jarayonida zoonimik komponentli birliklarning

1-jadval.


Konseptual derivatsiya jarayonida zoonimik komponentli birliklarning ikkilamchi ma’no olishi

t/r	Ingliz tilida	O‘zbek tilida	Ma’nosi
1.	cock of the walk	yigitlarning xo‘rozi	oldi, boshi
2.	dog‘s age	toshbaqadek imillab	uzoq vaqt
3.	a horse of another (or different) colour	chayonning bolasi chayon, ilonning bolasi ilon	Boshqacha
4.	power behind the throne	otning qashqasi	Mashhurlik
5.	turn geese into swans (ijobiy)	pashshadan fil yasash (salbiy)	odamga xos xususiyat: bo‘rttirish

Shu asnoda zoonimik birliklar yasalishi, ya’ni konseptlarga xos xususiyatlarning birinchisidan ikkinchisiga ko‘chishi ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham keng tarqalgan.

Quyida kompyuter sohasiga oid neologizm xarakteridagi zoonimik birikmaning konseptual strukturasi shakllanishini tahlilga tortamiz. Axborot texnologiyalari hududiga oid termin *information food chain* birikmasining konseptual asosini


axborot manbalarini oziq-ovqat zanjiri tugunlariga o‘xshatish kognitiv metaforasi tashkil qiladi. Tabiiyki, internet axborot to‘plashning asosiy manbayidir, ammo shuning bilan birgalikda boshqa ommaviy axborot vositalari ham bu o‘rinda ahamiyatsiz emas. Barcha vositalarning jamlanishi “axborot ozuqasi zanjiri”ni tashkil qiladi. Konseptual derivatsiya jarayonida axborot jamlanish tizimini quyidagi sxemada tasvirlash mumkin:



1-rasm: “Axborot ozuqasi zanjiri” konseptual derivatsiyasi

Insonning internetdan axborot izlashini ifoda etuvchi ushbu “axborot ozuqasi zanjiri” konseptual derivatsiya tagzaminida hayvonlarning ozuqa izlash xususiyati yetakchilik qiladi, chunki ozuqa izlash hayvonot dunyosiga xos bo‘lgan tushunchadir.

“Informatsion texnologiyalar” denotativ maydoni doirasida inson va hayvon olamining yaqinligini aks ettiruvchi kognitiv faoliyatning andozasini quyidagicha tasvirlash ham mumkin:



2-rasm: Inson va hayvonot olamining yaqinligini aks ettiruvchi kognitiv faoliyat

Turli konseptual hududlarning kesishishi va o‘zaro chatishib ketishi borasida keltirilayotgan misollar denotativ maydonlar harakatchanligi, dinamikasidan darak beradi. Har ikki tilning o‘ziga xos metaforik assotsiatsiyalari farq qilsa-da, asosiy kognitiv mexanizm, hayvon xususiyatlaridan abstrakt tushunchalarni chiqarish, umumiy inson tafakkuriga xosligi namoyon bo‘ladi.

Bobning so‘nggi faslida *“Zoonimik komponentli birliklarning ingliz va o‘zbek tillari frazeologizmlari tarkibida voqelanishi”* yoritiladi. Til tizimida frazeologizmlar barqaror, ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan va nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan birliklar sifatida muhim o‘rin tutadi. Zoonimik komponentli til birliklari aynan frazeologik qatlamda faol namoyon bo‘lib, ular orqali insonning turli xususiyatlari, holatlari va ijtimoiy munosabatlari obrazli tarzda ifodalanadi. Zoonimik komponentlarning ta’siri oddiy til tuzilmasidan tashqariga chiqib, til ichiga singdirilgan madaniy tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday birliklarda hayvonlarga xos xususiyatlar inson faoliyatiga ko‘chiriladi, kundalik hayotda tez-tez uchrab turadigan: “*She is fox!”, “He is lion”* kabi iboralar odatiydek bo‘lib qolgan. O‘zbek tilida ham *“U ayiqpolvon-ku”, “u haqiqiy ilon”* kabi metaforik iboralar orqali milliy turmush tarzi va an’analar ta’sirida o‘ziga xos obrazlar yuzaga keladi. Bu esa ikki til frazeologiyasining umumiy va farqli jihatlarini

aniqlash imkonini beradi. Madaniyatlararo muloqot va globallashuv jarayonida hayvonlarga nisbatan ramziy talqinlar ham yangicha qiyofa kasb etadi. Zoonimik birliklarning til tizimida moslashuvchanligi mahalliy kontekstga oid ifodalarning boshqa madaniyatlarga o‘tishi va yangi ma’nolar kasb etishiga imkon beradi. Masalan, *“timsohning ko‘z yoshlari”* iborasining bir necha tillarga kirib kelishi ma’lum madaniy kontekstdan boshlangan ishora qanday qilib turli jamiyatlarda soxta hissiyot va samimiyatsizlik bilan bog‘liq umumiy insoniy tajribani ifodalay boshlaganini ko‘rsatadi. Demak, hayvon obrazlari atrofida qurilgan murakkab ma’no tarmog‘i orqali zoonimik frazeologizmlar nafaqat lingvistik komponent sifatida, balki madaniy belgilar sifatida ham xizmat qiladi.

Zoonimik metaforalarning yana bir jihati yumor va kinoya yaratish imkoniyatidir. Masalan, *“when pigs fly”* (cho‘chqa uchganda), “*tuyani shamol uchirsa…*” iboralari imkonsiz hodisani kulgili tarzda ifodalaydi. Bunday giperbolik ifodalar insoniy xatti-harakatlar yoki jamiyat me’yorlarini tanqid qilish uchun xizmat qiladi va nutqni yanada ifodali qiladi. Badiiy adabiyotda zoonimik komponentlarni o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar obraz yaratish va syujetni rivojlantirishda muhim lisoniy vosita sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi bob **“Ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli til birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, uch faslni o‘z ichiga oladi. Birinchi faslda *“Ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli til birliklarining matn shakllantirishdagi funksional imkoniyatlari”* ochib berilgan. Zoonimik birliklar lingvopragmatik tahlilda matnni shakllantirish va kommunikativ vazifalarni bajarish imkoniyatlari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Paremiologik matnlar tarkibidagi hayvon obrazlari nafaqat ma’no uzatish bilangina cheklanib qolmasdan, balki matnning strukturasini, ritm va ta’sirchanligini ham belgilaydi. Til birliklarining kommunikativ qiymati ularning matn yaratilishidagi o‘rni, kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki bilan belgilanadi[21]. Bundan zoonimik birliklar ham mustasno emas. Zoonimik komponentli til birliklari ham o‘zlari qo‘llanilayotgan matn bilan funksional-semantik jihatdan munosabatga kirishadi va shu bois ularni “struktura – semantika – vazifa” uchligi doirasida tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi. Nutq tizimida zoonimik birliklar leksik, grammatik va sintaktik sathiga oid turli birliklar bilan uzviy va ajralmas munosabatlarga kirishib, matn tuzilishini ta’minlovchi vositalar qatoridan o‘rin oladi. Matn doirasida zoonimik birliklar lug‘aviy va pragmatik xizmat o‘taydi, aytish joizki, zoonimik birliklarning matnda bajaradigan vazifalari o‘zaro farq qilishi mumkin, bir paytda ham nominativ ham ekspressiv, shuningdek, stilistik va kommunikativ vazifalarni bajaradi. Zoonimik birliklar realistik tasvirni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali qishloq hayotiga xos muhit, uy hayvonlari bilan bog‘liq manzara aniq va ishonarli tarzda ifodalanadi. Natijada matnda tabiiylik va hayotiylik kuchayadi. Demak, matnda zoonimik birliklar obrazlilikni ta’minlaydi, emotsional-ekspressivlikni kuchaytiradi hamda voqelikning realistik tasvirini yaratadi. Shu bois ular badiiy matnning muhim stilistik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

[21] Даниева М.Дж. Сўз бирикмалари прагматикаси. – Қарши: Intellekt, 2023. – Б. 105.

Zoonimik birliklar turli asarlar matnlarida, asarning tarkibiy markaziga, “semantik o‘qi”ga aylanadi. Masalan, R. Kiplingning “Maugli” (The Jungle Book) nomli bir necha hikoyalardan iborat asarining matn tuzilishi misol bo‘la oladi. Zoonimik birlik mavjud bo‘lgan sarlavhaning o‘ziyoq uning matn yaratish imkoniyatiga ega ekanligidan guvohlik beradi. Sarlavhadagi zoonimik birlik ushbu holatda topik, ya’ni mavzuni belgilovchi rolini bajaradi: “Mehrobdan chayon” (A. Qodiriy), “Qoplon” (S. Ahmad), “Ot egasi”, “Cho‘loq turna”, “Bandi burgut” (Sh. Xolmirzayev), “White Fang” (J. London), “Animal Farm” (G. Orwell); nafaqat o‘zbek va ingliz adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham sarlavha tarkibida zoonimik birliklar mavjud asarlar ko‘plab uchraydi: “The spider’s Thread” (R. Akutagava), “To‘rg‘ay” (J. Anuy), “It yurak” (M. Bulgakov), “Cho‘l bo‘risi” (G. Gesse), “Kapalakqurt” (I. Kuprin), “Oq ot”, “Qora ot” (B. Savinkov), “Qora ilon” (A. Tolstoy), “Pingvinlar oroli” (An. Frans) va juda ko‘plab boshqa asarlar.

J. Yolen qalamiga mansub “The Regal Eagle” nomli she’riy matnda:

The regal eagle sits alone
upon a tree that serves as throne.
But sometimes when the eagle flies
(though this might come as some surprise)
a mob of crows may – wing to wing –
together drive away that king[22].

Zoonimik birliklar (*eagle* – burgut, *crows* – qarg‘alar) badiiy matnning asosiy semantik va stilistik tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali muallif murakkab ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunni ixcham va obrazli shaklda ifodalaydi. Ushbu matnda zoonimik birliklar ramziy (simvolik) funksiyani bajaradi. Burgut an’anaviy ravishda qudrat, yakkahokimlik va hukmronlik timsoli sifatida tasvirlangan. U “taxt vazifasini bajarayotgan daraxt ustida yolg‘iz o‘tirgan” holda tasvirlanib, individual hokimiyatni ifodalaydi. Aksincha, qarg‘alar to‘dasi jamoaviy kuch, omma yoki “demokratiya” ramzi sifatida talqin qilinadi. Ularning “qanotma-qanot birlashib” harakat qilishi jamoaviylik g‘oyasini kuchaytiradi. Zoonimik birliklar orqali axborot uzatilishida ratsionallik ta’minlanadi. Ya’ni murakkab siyosiy-ijtimoiy tushunchalar (hokimiyat, demokratiya, kuchlar muvozanati) bevosita mavhum izohsiz, hayvonlar obrazi orqali sodda va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu esa matnning kognitiv samaradorligini oshiradi. Mazkur birliklar qarama-qarshilik (kontrast) hosil qilish vazifasini ham bajaradi. Burgutning yakka holdagi “*shoh*” sifatidagi mavqeyi qarg‘alarning jamoaviy harakati bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada individual kuch va jamoaviy kuch o‘rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Bu qarama-qarshilik she’rning asosiy g‘oyaviy o‘qini tashkil etadi. Ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik birliklar matn shakllantirishda quyidagi funksional imkoniyatlarga ega: 1. Ma’no boyligini oshirish – hayvon obrazlari yordamida matn yanada tasviriy va jonli bo‘ladi. 2. Axborot uzatishda samaradorlik – qisqa

[22] Yolen J. The Bird of Time. – New York: Crowell, 1971. – P. 10.

frazeologik birliklar murakkab tushunchalarni tez va aniq yetkazadi. 3. Emotsional rang-baranglik – hayvon obrazlari orqali hissiy ohang beriladi. 4. Kontekstga moslik va idiomatiklik – matnda madaniy va xalq tajribasi aks etadi, nutq tabiiy bo‘ladi. 5. Qiyosiy va didaktik funksiya – maqollar orqali ibrat, ogohlantirish va maslahat beriladi.

“Ingliz va o‘zbek paremiologik matnlarida zoonimik komponentli til birliklari voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi faslda zoonimik komponentli til birliklari faqat lingvistik va kognitiv jihatdan emas, balki milliy-madaniy kontekstda ham tadqiq etildi va ularning bir qator xususiyatlari yoritildi. Paremiologik matnlar tarkibida hayvon obrazlari ko‘pincha xalqning tarixiy tajribasi, yashash tarzi, qadriyatlari va urf-odatlarini aks ettiradi[23]. Masalan, o‘zbek paremiologiyasida *qo‘y, ot, burgut* kabi hayvonlar ijobiy ma’noda ko‘pincha sadoqat, jasorat va iroda bilan bog‘lanadi. Ingliz tilida esa *it, tulki, quyon* kabi hayvonlar turli ijobiy yoki salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi va an’analari orqali shakllangan obrazlarni aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda, bir xil hayvon turlicha madaniy baholashga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, milliy-madaniy kontekst hayvon nomlarining metaforik va semantik serqirraligiga ta’sir qiladi. O‘zbek paremiologik matnlarida hayvon obrazlari ko‘pincha hayotiy tajribaga asoslanadi, chunki chorvachilik va qishloq xo‘jaligi xalqning hayotiga tarixiy jihatdan kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ingliz paremiologiyasida esa hayvon obrazlari ko‘pincha folklor va adabiyot orqali shakllangan, shuning uchun ular metaforik va ramziy xarakterga ega bo‘ladi. Natijada zoonimik birliklarning semantik yuki va obrazlilik darajasi milliy-madaniy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Uchinchidan, zoonimik birliklarning paremiologik matnlar tarkibda ishlatilishi kommunikativ vazifalarni milliy madaniyat nuqtayi nazaridan boshqaradi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*” maqoli aniq axloqiy va ijtimoiy maslahat sifatida ishlatilsa, ingliz tilida “*Curiosity killed the cat*” ijtimoiy yoki axloqiy xulosa beruvchi hazil-sharh sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tarzda, milliy-madaniy kontekst zoonimik birliklarning pragmatik ta’sirini shakllantiradi. Shuningdek, chog‘ishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy-madaniy tafovutlar nafaqat hayvon obrazlarining semantik konnotatsiyasida, balki matn shakllantirishdagi stilistik va ekspressiv vositalarda ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek paremiologiyasida hayvon obrazlari ko‘pincha aniq, bevosita axloqiy yoki tarbiyaviy xulosani yetkazsa, ingliz tilida ular ko‘proq hazil, kinoya yoki yashirin ma’no (implicature) orqali ijtimoiy baho beradi. Shu bilan birga, umumiy universal konseptlar (masalan, sadoqat, hiylakorlik, jasorat) har ikki xalq tilida mavjud, lekin ifodalash usuli madaniyatga qarab farqlanadi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek tilidagi zoonimik komponentli maqol va matallarning milliy-madaniy xususiyatlari mavzuiy guruhlarga bo‘lib ko‘rsatilgan, jadvalning to‘liq variant tadqiqotga ilova tarzida kiritilgan (Qarang: Ilova 1.):

[23] Shirinyan G. Language as reflection of cultural identity in Central Asia: A study of zoonyms in Armenian and Uzbek contexts // Journal of Armenian studies. – 2021. 9(3). – P. 107.

2-jadval.

O‘zbek tilidagi zoonimik komponentli maqol va matallarning milliy-madaniy xususiyatlari

Mavzuiy guruh	Misollar
Onalik	“Quyon bolasini botirim der, it bolasini qoplonim der”, “Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im der, kirpi bolasini yumshog‘im der”
Vatanni sevish, vatanparvarlik	“Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan”, “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni”, “Bulbulga bog‘ yaxshi, kaklikka – tog‘”
To‘g‘rilik /egrilik	“Baliq boshidan sasir”, “Bir tulkining hiylasi necha yerda pand berar”, “Tulki tulkilik qilar, bo‘ri bo‘rilik qilar”
Botirlik, qo‘rqoqlik	“It qo‘rqoqni talar”, “Yo‘lbarsdan qo‘rqqan to‘qayga kirmas”, “Sherning urg‘ochisi ham sher”(29)
Yaxshilik va yomonlik	“Bir ilon bir uy odamni tinchitmas”, “Yomon yaxshi bo‘lmas, eshak – baxshi”, “Chayonning kasbi – chaqish”
Pand-nasihat	“Ot aylanib qozig‘ini topar” , “Ot bosmagan yerlarni toy bosar”
Mehnatsevarlik/ dangasalik	“Aravani ot tortar, ko‘lankasin – it”, “Ariq qazimasang, otingga suv chiqmas”, “Ishi yo‘q eshak hurkitar” (14)
Jamoaviylik va xudbinlik	“Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer”, “Bir qarg‘a bilan qish kelmas”, “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”(8)
Inson tabiati, tarbiya	“Qo‘ydek yuvvosh bo‘l, otdek – yugurik”, “Echkining tavbasi yo‘q”, “Sabr qilsang, tuyaning yukini bo‘ta ko‘tarar”, “Ikki quyonni quvlagan birini ham tutolmas”, “Xotin ko‘p bo‘lsa, cho‘michni it yalar, qassob ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar”(105)
Go‘zallik	“Kiyikli tog‘ – suyukli tog‘”, “Otni yaxshi ko‘rsatgan – tuyoqdagi taqasi”, “Eshakka – to‘qim, odamga – libos”
O‘qimishlilik	“O‘rdak bo‘lmay, g‘oz bo‘l, bilim olib, soz bo‘l”, “Toyni ot qilguncha, egasi it bo‘lar”(79)
Tenglik va tengsizlik	“Sichqonga – o‘lim, mushukka – o‘yin”, “Ot bilan tepishgan toyning engagi sinar”, “Ot tepkisini ot ko‘tarar”, “Qo‘y bilan bo‘ri bir og‘ilda yashamas”(59)[24]

Mazkur jadvalda o‘zbek tilidagi zoonimik komponentli 275 ta maqol va matal mavzuviy ghuruhlarga bo‘lib tahlil qilingan bo‘lib, ular turli hayvon nomlari asosida shakllangan. Statistik ko‘rsatkichlar ayrim hayvon obrazlarining xalq tafakkurida alohida o‘rin egallaganini ko‘rsatadi:

3-jadval.

O‘zbek tilidagi maqol va matallarda hayvon nomlari qo‘llanishining statistik ko‘rsatkichi

z/b	s	z/b	s	z/b	s	z/b	s	z/b	s	z/b	s	z/b	s
it	75	ilon	23	qush	14	chivin	3	echki	9	qulun	1	mushuk	6
ot	44	biya	3	Baliq	6	o‘rdak	6	tulki	13	qo‘zi	4	sichqon	6
fil	2	buqa	2	tuya	15	qoplon	1	eshak	21	bo‘ta	2	g‘unajin	1
toy	8	ayiq	1	uloq	1	hayvon	1	quyon	8	qo‘y	4	yo‘lbars	4
sher	9	bo‘ri	9	Kaklik	1	ho‘kiz	8	oqqush	1	kirpi	1	tovushqon	1
tozi	4	sigir	8	xo‘roz	2	qarg‘a	6	kuchuk	1	kiyik	2	polapon	1
g‘oz	9	arslon	6	Bedana	2	qo‘ng‘iz	1	qo‘chqor	1	bulbul	4	kapalak	1
qorashaqshaq			1	Chumchuq			2	to‘ng‘iz			1	qiyg‘ir	1

[24] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq NMAKBM, 2005.

Eng ko‘p uchraydigan zoonim – *it* (75 ta) bo‘lib, bu obraz ko‘pincha sadoqat, pastkashlik, ba’zan esa haqorat yoki tanqid ma’nolarini ifodalaydi; keyingi o‘rinda *ot* (44 ta) turadi, u asosan mehnatsevarlik, sadoqat va inson hayotidagi yaqin hamroh timsoli sifatida talqin qilinadi; *ilon* (23 ta) va *eshak* (21 ta) zoonimlari ko‘proq salbiy konnotatsiyani ifodalaydi, hiylakorlik, ahmoqlik yoki qaysarlikni bildiradi. O‘rta chastotali guruhga *tuya* (15 ta), *qush* (14 ta), *tulki* (13 ta) kabi hayvonlar kiradi; *bo‘ri* (9 ta), *g‘oz* (9 ta), *echki* (9 ta), *sher* (9 ta) kabi zoonimlar ham muayyan xarakter xususiyatlarini ifodalashda faol qo‘llanadi; *fil, kapalak, kirpi, kaklik, qiyg‘ir* kabi kam uchraydigan zoonimlar (1-3 ta) ko‘proq individual yoki kontekstual ma’nolarni ifodalab, umumxalq tafakkurida keng tarqalmaganligini ko‘rsatadi.

Zoonimik komponentli maqol va matallarning tematik paradigmasi ko‘p qirrali tizim bo‘lib, turli ma’nolarni qamrab oladi hamda semantik, funksional va uslubiy jihatlar asosida tasniflanadi, shunga ko‘ra quyidagi asosiy tematik guruhlar ajratildi: 1) tashqi ko‘rinish – *ohudek ko‘rkam*; 2) inson tabiati (xarakter) xususiyatlari – *tulkidek ayyor;* 3) xulq-atvor – *jangari x‘orozdek;* 4) emotsional va ruhiy holat – *buqadek jahli chiqmoq;* 5) mehnat faoliyati – *otdek ishlamoq*; 6) ijtimoiy maqom – *serka (yo‘lboshchi) bo‘lmoq;* 7) maishiy hayot – *it bilan mushukdek yashamoq;* 8) hayotiy tajriba – *toyni ot qilguncha, egasi it bo‘lar*.

Ingliz tilidagi paremiologik matnlar tarkibida ham zoonimik birliklarni qo‘llash keng tarqalgan.

4-jadval

Ingliz tilidagi zoonimik komponentli maqol va matallar

Z/b	Maqol yoki matal	Tarjimasi
Fox	We must fall down before a fox in season	Fursati kelganda tulki oldida ham bosh egishga to‘g‘ri keladi.
Dog	Barking dogs seldom bite.	Huradigan it kamdan kam tishlaydi
Cat	Like a cat round hot milk	Issiq sut atrofida aylangan mushukdek
Horse	As wary as a blind horse.	Ko‘r otdek ehtiyotkor.
Cock	Young cocks love no coops	Yosh xo‘rozlar qafasni yoqtirmaydi.
Hen	Hens are ay free o ' horse corn	Tovuqlar ot yemidan ham tekin foydalanadi.
Bird	Old birds are not caught with chaff.	Qari qushni somon bilan tutib bo‘lmaydi.
Bear	The bear wants a tail, and cannot be lion	Ayiq dumni xohlaydi, lekin sher bo‘la olmaydi.
Beer	Old bees yield no honey.	Qari asalarilar asal bermaydi.
Wolf	To have a wolf by the ears	Bo‘rining qulog‘idan ushlab turmoq.
Pig	As wilful as a pig; he'll neither lead nor drive.	Cho‘chqadek qaysar – na yetaklab, na haydab bo‘ladi.
Sheep	One sheep follows another.	Bir qo‘y boshqasiga ergashadi.
Camel	To strain at a gnat and swallow a camel	Chivinni suzib, tuyani yutmoq.
Elephant	To change a fly into an elephant.	Pashshadan fil yasash
Owl	You bring owls to Athens.	Afinaga boyqush olib borasan.
Lion	A lion may be beholden to a mouse	Sher ham sichqondan minnatdor bo‘lishi mumkin.
Eagle	Eagles fly alone, but sheep flock together[25].	Burgut yolg‘iz uchadi, qo‘ylar esa to‘da bo‘lib yuradi.

[25] Handbook of proverbs. Bohn’s reference library. – London: George Bell and sons, 1899 (reprint. 2012). – 649 p.

Ingliz va o‘zbek paremiologik matnlaridagi zoonimik komponentli birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari ularning semantik, pragmatik va kognitiv qatlamlarini boyitadi. Hayvon obrazlari orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy tushunchalari matnga uzviy tarzda singdiriladi. Shu bilan, milliy-madaniy kontekst zoonimik birliklarning matn shakllantirish va kommunikativ funksiyalarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Uchinchi faslda *“Chog‘ishtirilayotgan tillarda zoonimik komponentli til birliklarining kommunikativ diskursda pragmatik namoyon bo‘lishi”* yoritiladi. Paremiologik diskurs ko‘pincha 1) tarbiyaviy, ijtimoiy yoki axloqiy maqsadlarni amalga oshiradi va zoonimik komponentlar bu ta’sirni kuchaytiradi; 2) hayvon obrazlari orqali abstrakt tushunchalar obrazli, tushunarli va esda qolarli shaklda yetkaziladi. Ingliz tilida bu jarayon ko‘pincha hazil, kinoya orqali amalga oshsa, o‘zbek tilida u aniq va bevosita axloqiy baho sifatida namoyon bo‘ladi; 3) zoonimik birliklar kommunikativ niyatni belgilash va so‘zlovchining fikrini baholash imkonini beradi. Diskurs doirasida ular ma’noni kengaytirish, tafovutlarni ko‘rsatish va tinglovchining e’tiborini muayyan jihatlarga qaratish uchun ishlatiladi. Masalan, *“tulki kabi ayyor”* iborasi orqali so‘zlovchi nafaqat hiylakorlikni tasvirlaydi, balki tinglovchiga ijtimoiy yoki axloqiy baho beradi. Shu tarzda, zoonimik birliklar diskursning ko‘p qatlamli semantik va pragmatik mazmunini hosil qiladi.

Chog‘ishtirilayotgan tillar adabiy matnlarida zoonimik birliklar turli mavzuviy guruhlarga mansub bo‘lsa-da, ularning umumiy xususiyati – insonni nomlash (antroponimiklash) va shu orqali antropologik belgilarni ifodalashdir. *“Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha…”* misolida *Bo‘riboyvachcha* inson ismi hayvon nomi asosida yaratilgan bo‘lib, u orqali insonning individual xususiyatlari va milliy-madaniy qarashlar ifodalanadi. Bu yerda zoonim (bo‘ri) kuch, jasurlik yoki himoya kabi ijobiy assotsiatsiyalarni anglatadi. Ingliz tilidagi *“In the hole lived Mr. Fox and Mrs. Fox…”* misolidagi “Mr. Fox” va “Mrs. Fox” zoonimik birliklari bevosita nom sifatida qo‘llanmoqda. Badiiy asarlarda uchraydigan yana boshqa bir zoonimik birliklar guruhi inson laqablari bo‘lib, chog‘ishtirilayotgan har ikki tilda ham laqab zoonimik birliklari keng iste’molda bo‘lgan. Shuningdek, badiiy adabiyotda zoonimik laqab faqat qahramonning asl ismi o‘rnida emas, balki hayvonga nisbatan ham ishlatilgan holatlar uchraydi. Masalan: – *Qora Lochindan bir zuryod qoldi. Otini Qora Jayron qo‘ydim. Men sizga aytsam, “Tohir va Zuhra” kinosida Tohir mingan Qorabayir Qora Jayronning bobosi edi*[26]. Keltirilgan ushbu parcha badiiy adabiyotda zoonimik birliklarning laqab sifatida faqat insonga emas, balki hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanishini yaqqol ko‘rsatadi. Misolda *“Qora Lochin”, “Qora Jayron”, “Qorabayir”* kabi zoonimik laqablar: 1) nominativ / nomlash (hayvonni individuallashtiradi); 2) xarakterlovchi (hayvonning jismoniy va funksional xususiyatlarini ochib beradi); 3) ekspressiv-estetik (matnga obrazlilik, badiiylik kiritadi); 4) madaniy-kognitiv (xalqning hayvonlarga oid tasavvurlari va qadriyatlarini aks ettiradi) kabi pragmatik funksiyani bajaradi.

[26] Аҳмад С. Жимжитлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1989. – Б. 124.

Ushbu misolning muhim jihati shundan iboratki, zoonimlar ikkilamchi metaforik ko‘chimlarsiz, ya’ni insonni emas, bevosita hayvonni nomlash uchun ishlatilgan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek paremiologik matnlarida zoonimik komponentli til birliklari kommunikativ diskursda quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1. Mavzuni va xulosani birlashtirish – matnning mantiqiy va semantik birligini ta’minlash. 2. Emotsional va kognitiv ta’sir yaratish – tinglovchi yoki o‘quvchida obrazli va esda qolarli ta’sir hosil qilish. 3. Kommunikativ niyatni belgilash – so‘zlovchining baholash, ijtimoiy yoki axloqiy fikrini yetkazish. 4. Madaniy va stilistik kontekstni aks ettirish – milliy madaniyatga xos ifoda vositalarini qo‘llash.

Zoonimik komponentli birliklar diskursning kognitiv, pragmatik va madaniy qatlamlarini uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa ularni lingvokognitiv va lingvopragmatik tadqiqotlar uchun markaziy obyekt sifatida e’tirof etishga asos yaratadi.

XULOSA

1. Lingvokognitiv yondashuv tilni inson tafakkurini tashkil etuvchi va uni ifodalovchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qiladi, ushbu yondashuv doirasidagi tadqiqotlar til va tafakkur o‘rtasidagi uyg‘unlikni ilmiy asosda o‘rganadi. Lingvopragmatik yondashuvda tilning amaliy qo‘llanishi, muayyan maqsad bilan kontekstda ishlatilishi nazarda tutiladi, bu yondashuv til va tafakkur munosabatlarini ijtimoiy omillar hamda kontekstual sharoitlarda tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Zoonimik komponentli paremiologik birliklar inson tafakkurida olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali abstrakt tushunchalar konkret obrazlar vositasida ifodalanadi. Kommunikativ-pragmatik yondashuv maqol va matallarning suhbat jarayonida qanday ishlatilishini, ular orqali ma’no qanday qurilishini va sotsiolingvistik muhitda qanday rol o‘ynashini ochib beradi va ular ijtimoiy qoidalar, milliy-madaniy qadriyatlarni yetkazuvchi lingvistik birlik sifatida talqin qilinadi.

3. Paremiologik birliklar tadqiqida antropotsentrik yondashuv inson va hayvonlar olami o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan bo‘lib, bu munosabatlar haqidagi bilimlar tilning nafaqat umumiy, balki milliy va metaforik dunyoqarashida ham aks etadi, zoonimlar insonning turli xususiyatlarini tavsiflashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali shaxsning tashqi ko‘rinishi, ichki dunyosi, yoshi, xulq-atvori va harakatlari milliy-madaniy qadriyatlar hamda stereotiplar tizimi asosida ifodalanadi.

4. Zoonimik komponentli paremiologik birliklarning paydo bo‘lishi til tizimining ijodkorlik faoliyati natijasidir. Yangi bilim strukturasi – konseptning paydo bo‘lishi doimo avvalgi konseptlar negizida kechadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentli paremiologik birliklarning konseptuallashuv jarayoni kechishini ta’minlovchi va uni samaraga olib keluvchi kognitiv mexanizmlar “perspektivlashtirish yoki istiqbollashtirish”, “biriktirish”, “qurib bitkazish”, “rivojlantirish” kabi turli amallar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

5. Ingliz va o‘zbek paremiologik matnlarida hayvon nomlari ko‘pincha muayyan konseptlarni ifodalash uchun kognitiv model sifatida xizmat qiladi. Bunda hayvonlarning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, yashash tarzi kabi belgilar asosida inson sifatlari metaforik tarzda talqin etiladi. Zoonimik komponentli paremiologik birliklarning konseptuallashuvi, avvalo, hayvonlarga xos xususiyatlarning inson faoliyati va xulq-atvoriga ko‘chirilishi bilan bog‘liq.

6. Frazeologik birliklarda qo‘llanadigan zoonimik komponentlar ma’no ifodalash, madaniy tasavvurlarni shakllantirish, shaxslararo muloqotni yengillashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Nutq tizimida zoonimik birliklar leksik, grammatik va sintaktik sathiga oid turli birliklar bilan uzviy va ajralmas munosabatlarga kirishib, matn tuzilishini ta’minlovchi vositalar qatoridan o‘rin oladi. Zoonimik birlik mavjud bo‘lgan sarlavhaning o‘ziyoq uning matn yaratish imkoniyatiga ega ekanligidan guvohlik beradi. Sarlavhadagi zoonimik birlik ushbu holatda topik, ya’ni mavzuni belgilovchi rolini bajaradi; zoonimik birliklar matnda qo‘shimcha axborot manbayi bo‘lish bilan birga, badiiy tasvirning muhim vositasiga aylanadi va muallif niyatini yanada yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

7. Ingliz va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli lisoniy birliklar matn shakllantirishda quyidagi funksional imkoniyatlarga ega: 1. Ma’no boyligini oshirish – hayvon obrazlari yordamida matn yanada tasviriy va jonli bo‘ladi. 2. Axborot uzatishda samaradorlik – qisqa frazeologik birliklar murakkab tushunchalarni tez va aniq yetkazadi. 3. Emotsional rang-baranglik – hayvon obrazlari orqali hissiy ohang berish osonlashadi. 4. Kontekstga moslik va idiomatiklik – matnda madaniy va xalq tajribasi aks etadi, nutq tabiiy bo‘ladi. 5. Qiyosiy va didaktik funksiyalar – maqollar orqali ibrat, ogohlantirish va maslahat berish mumkin.

8. Zoonimik frazeologizmlar milliy dunyoqarashning muhim ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular ma’lum bir etnik jamoaning qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ular olamning lisoniy manzarasini shakllantiradi, unda hayvonlarga muayyan xususiyatlar biriktiriladi va bu xususiyatlar avloddan avlodga o‘tib boradi. Shu jihatdan, zoonimik frazeologiya nafaqat tilning ifodaviy vositasi, balki milliy o‘zlikni saqlashning muhim omili ham hisoblanadi.

9. Matndagi zoonimik birliklar ikki: xarakterlovchi (asl xarakterlovchi va invektiv) va emotsional funksiya guruhiga bo‘linadi; ular ingliz va o‘zbek paremiologik matnlarida quyidagi kommunikativ diskursiv funksiyalarni bajaradi: 1. Mavzuni va xulosani birlashtirish – matnning mantiqiy va semantik birligini ta’minlash. 2. Emotsional va kognitiv ta’sir yaratish – tinglovchi yoki o‘quvchida obrazli va esda qolarli ta’sir hosil qilish. 3. Kommunikativ niyatni belgilash – so‘zlovchining baholash, ijtimoiy yoki axloqiy fikrini yetkazish. 4. Madaniy va stilistik kontekstni aks ettirish – milliy madaniyatga xos ifoda vositalarini qo‘llash.

SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/2025.27.12.Fil. 11.05 AT KARSHI STATE UNIVERSITY

KARSHI STATE UNIVERSITY

EGAMBERDIEVA YULDUZ BAKHODIR KIZI

LINGUOCOGNITIVE AND LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF LANGUAGE UNITS WITH ZOONYMIC COMPONENTS IN PAREMIOLOGICAL TEXTS
(in the examples of English and Uzbek languages)

10.00.13 – Comparative and Contrastive Linguistics

DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL sciences

Karshi – 2026

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered at the Supreme Attestation Comission of the Republic of Uzbekistan under the reference number B2025.3.PhD/Fil6643.

The dissertation has been prepared at Karshi State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been placed on the website of Scientific Council at Karshi State University (www.qarshidu.uz) and "ZiyoNet" Information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Danieva Maysara Djamalovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Official opponents:	**Yuldosheva Kholida Kuzievna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
	Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Leading organization:	**Jizzakh State Pedagogical University**

The defense of the dissertation will be held on _____ "_____", 2026 at _____ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.11.05 awarding scientific degrees, at Karshi State University (Address: 180119, Kuchabag street 17, Karshi city. Phone: (+99 875) 221-21-04; fax: (+99 875) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Karshi State University, Faculty of Languages, 3rd floor Room №310.

The dissertation is available at the Information-resource center of Karshi State University (registration number_____). (Address: 180119, Kuchabag street 17, Karshi. Phone: (+99 875) 221-21-04).

The dissertation abstract is distributed on "_____" _____ 2026
(Mailing report № _____on "_____" _____ 2026).

G.Kh. Ernazarova
Chairperson of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology (DSc), professor

N.K. Ochilov
Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology (DSc), professor

M.B. Nizomova
Vice Chairperson of the Scientific Seminar under the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology (DSc), Associate professor

INTRODUCTION (abstract of dissertation (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic: In recent years, there has been a growing interest in world linguistics in the study of linguistic units with zoonymic components. In particular, a comprehensive analysis of such units in paremiological texts based on linguocognitive and linguopragmatic approaches allows for a deeper understanding of their nature. The relevance of this research is determined by the importance of investigating the linguocognitive and linguopragmatic aspects of zoonymic paremiological units in the English and Uzbek languages. A comparative study of these units serves as a theoretical and methodological basis for identifying how similar and different concepts are expressed across cultures.

Special attention is being paid in world linguistics to research devoted to the semantic, cognitive, and pragmatic study of lexical units. In particular, studying the zoonymic lexicon that is, linguistic units related to animal names – in English, Uzbek, and other languages on the basis of the anthropocentric principle, and analyzing them in a comparative aspect, enriches scientific knowledge in this field. Paremiological texts, in particular proverbs and sayings, often perform pragmatic functions such as expressing indirect meaning, giving advice, and rendering evaluation. Zoonymic components, in turn, reinforce these functions and enhance the expressiveness of speech. The linguopragmatic approach serves as an important theoretical basis for analyzing the relationship between language and thought within social factors and contextual conditions. According to this approach, language is not merely a set of structures, but a system inseparably connected with the social environment in which it exists. Situation-specific processes and cultural factors play an important role in the formation and comprehension of meaning. This view is consonant with the principles of pragmatics, demonstrating that context ensures the full comprehension of meaning. Researching these issues is of great importance in preserving the linguistic heritage of a language and further strengthens the necessity of studying zoonymic-component paremiological units.

“There are still many tasks ahead of us in order to unveil the incomparable potential of the Uzbek language and to enhance its prestige and appeal on a global scale”[1]. Among these tasks, ensuring the purity of our national language, conducting scientific research into its inner lexical-semantic richness, and securing it a worthy place in the context of world linguistics are of great importance. Proverbs and sayings involving zoonymic units constitute a unique linguo-cultural phenomenon reflecting a people’s centuries-long life experience, worldview, moral-aesthetic views, and relationship with nature. Studying zoonymic paremias in a comparative-typological aspect alongside material from other languages (in particular, English, Russian, or Turkic languages) is of particular relevance. Such an analysis makes it possible, on the one hand, to identify the national-cultural

[1] Congratulatory address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the people of Uzbekistan on the occasion of the holiday / Khalq So‘zi. October 22, 2024. No. 215.

distinctiveness specific to the Uzbek language, and on the other hand, to reveal the universal and common human aspects present in the linguistics of various peoples. Furthermore, conducting a deep and systematic study of proverbs and sayings with zoonymic components lays the groundwork for strengthening the position of the Uzbek language in the international communicative arena and for conveying examples of our national literary heritage to readers around the world in a complete and accurate manner. Thus, this issue is of pressing scientific and practical importance not only from the standpoint of theoretical linguistics, but also from the perspective of intercultural communication.

This dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of the priorities set forth in the normative-legal framework of the Republic of Uzbekistan, including: Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-5117. (May 19, 2021) "On measures to elevate the popularization of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level"; Resolution No. PR-312 (May 19, 2021) "On measures for the effective organization of activities aimed at promoting foreign language learning"; Resolution No. PR-34 (January 19, 2022) "On additional measures to improve foreign language learning"; Resolution No. PR-128 (April 20, 2023) "On measures to accelerate the comprehensive development of the education system through enhancing the quality of scientific-methodological and research activities"; Resolution No. PR-54 (January 5, 2024) "On additional measures to accelerate reforms in the field of education"; as well as the Presidential Decrees No. PD-5847 (October 8, 2019) "On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030"; No. PD-6108 (November 6, 2020) "On measures for the development of education and science in the new stage of Uzbekistan's development"; No. PD-60 (January 28, 2022) "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"; and No. PD-158 (September 11, 2023) "On the "Uzbekistan – 2030" Strategy," along with other relevant regulatory and legal documents".

Relevance of the research to the priority areas of the development of science and technology in the republic. The dissertation aligns with the priority area of the development of science and technology in the Republic: "The formation and implementation of innovative ideas in the development of an information society and a democratic state in social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational spheres".

Degree of study of the problem. In world linguistics, the complex relationship between language and thought constitutes a central object of in-depth scientific inquiry within the domains of cognitive science, linguistics, and philosophy. Beginning with Socrates, and later developed by Plato and Aristotle, it has been theoretically emphasized that every concept represents the expression of a particular idea[2]. Issues related to language and thought, paremiological texts, and

[2] Сократ / Фрэнсис Бэкон / Рене Декарт / Иммануил Кант / Георг Гегель и другие. Мышление. Что о нем думают философы. – Москва: Изд-во АСТ, 2023. – 190 с.; Платон. Избранные произведения. Том 1. – Москва, 2019. – 461 с.; Аристотель. Риторика. – Москва: ЛитРес, 2000. – 161 с.

